



QOZOG‘ISTON PREZIDENTINING O‘ZBEKISTONGA DAVLAT TASHRIFI BOSHLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev 14-noyabr kuni davlat tashrifi bilan Toshkentga keldi. Qozog‘iston yetakchisini Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev kutib oldi.



Qosim-Jomart Toqayev mamlakatimizga kelgach, davlat rahbarlari “Toshkent-Humo” xalqaro aeroportida suhbat o‘tkazdilar.

O‘zbekiston — Qozog‘iston strategik sheriklik va itifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Shundan so‘ng Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevni rasmiy kutib olish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Oliy martabali mehmon sharafiga ikki davlat bayroqlari ko‘tarildi, faxriy qorovul saf tortdi. Harbiy orkestr ijrosida O‘zbekiston va Qozog‘iston davlat madhiyalari yangradi.

Prezidentlar Qosim-Jomart Toqayev va Shavkat Mirziyoyev faxriy qorovul safi oldidan o‘tib, rasmiy delegatsiyalar a‘zolarini qutladilar.

Tashrif dasturiga muvofiq, 15-noyabr kuni, oliy darajadagi muzokaralar hamda Oliy davlatlararo kengashning ikkinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Sammit doirasida yirik qo‘shma loyihalar ishga tushirilishi va ikki tomonlama hujjatlarning katta to‘plami imzolanihi kutilmoqda.

O‘ZA

TOSHKENTDA MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI RAHBARLARINING YETTINGCHI MASLAHAT UCHRASHUVI BO‘LIB O‘TADI

15-16-noyabr kunlari Toshkent shahrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi bo‘lib o‘tadi.

Sammitda Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, shuningdek, BMTning Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo‘yicha mintaqaviy markazi rahbari Kaxa Inmadze ishtirok etadi.

Tadbir kun tartibidan Markaziy Osiyo-da mintaqaviy hamkorlikni yanada mustahkamlash, shuningdek, ustuvor sohalarda qo‘shma loyihalar va tashabbuslarni amalga oshirish masalalari o‘rin olgan.

Mintaqaviy va xalqaro siyosatning dolzarb masalalari yuzasidan fikr almashiladi.

Maslahat uchrashuvi yakunlariga ko‘ra ko‘p tomonlama hujjatlarning salmoqli to‘plami qabul qilinishi kutilmoqda.

Mintaqa davlatlari rahbarlarining muntazam maslahatlashuvlarini o‘tkazish tashabbusi O‘zbekiston yetakchisi tomonidan 2017-yilning sentabr oyida BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ilgari surilgan edi.

O‘zbekistonning ushbu formatdagi raisligi davrida hamkorlikning turli sohalarini qamrab oluvchi 20 dan ortiq yirik tadbirlar o‘tkazildi.

O‘ZA

MARKAZIY OSIYO CHINAKAM BIRDAMLIK DAVRIGA QADAM QO‘YMOQDA

Xorijlik ekspertlar Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida” maqolasi haqida

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Toshkentda bo‘lib o‘tayotgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuviga bag‘ishlab e‘lon qilingan “Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida” sarlavhali maqolasi xorijiy ekspert va siyosiy doiralarda keng muhokamalarga sabab bo‘ldi. Bunday munosabat ko‘p jihatdan mintaqaviy yetakchilarining uchrashuvi hamda maqolada keltirilgan g‘oyalar majmui va mintaqaviy hamkorlikning yangi yo‘nalishlari bilan bog‘liq.

Xorijiy tahlilchilarning fikricha, O‘zbekiston yetakchisi ushbu dasturiy maqolasida mintaqaviy kelajagining yaxlit manzarasini ochib bergan. Mamlakatlar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlash, iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, transport va energetika yo‘laklarini kengaytirish, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta‘minlash



bo‘yicha muhim yondashuvlar ilgari surilgan. Maqolada o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, ochiqlik va uzoq muddatli maqsadlarga yo‘naltirilgan yagona pragmatik hamkorlik muhitini shakllantirishga alohida e‘tibor qaratilgan. Ekspertlarning baholashicha, maqola mintaqaviy kun tartibini shakllantirish va ko‘p tomonlama aloqalarning umumiy yondashuvlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Davomi 2-beta

16-noyabr – Xalqaro bag‘rikenglik kuni

TINCHLIK VA TARAQQIYOTNING MUSTAHKAM POYDEVORI

Dunyo hamjamiyati har yili 16-noyabrni Xalqaro bag‘rikenglik kuni sifatida keng nishonlaydi. Bu sana jahonda tinchlik, hamjihatlik va o‘zaro hurmat muhitini mustahkamlash, millatlar va dinlar o‘rtasidagi mulqotni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston esa azaldan turfa sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgan, turli xalqlar va madaniyatlarni birlashtirgan tinchlik, do‘stlik va bag‘rikenglik zaminini sifatida nom qozongan.

Davomi 2-beta



Biz keyingi yillarda Yangi O‘zbekistonda “Inson qadri uchun” degan tamoyil ustuvor bo‘lgan, ijtimoiy adolat ta‘minlangan, ehtiyojmand aholi samarali himoya qilingan jamiyat barpo etmoqdami. Bu yo‘ldagi qat‘iy pozitsiyamiz yangi Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo‘yildi hamda mamlakatimizning ijtimoiy davlat sifatidagi maqomi e‘lon qilindi.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

YANGI O‘ZBEKISTON: INSON QADRI USTUVOR, IJTIMOIY ADOLAT TA‘MINLANGAN JAMIYAT SARI

Ochlik va qashshoqlik kuchayishidan tortib, iqlim beqarorligigacha bo‘lgan global muammolar chuqurlashib borayotgan bir paytda, 2025-yil 4-6-noyabr kunlari Dohada Ijtimoiy rivojlanish bo‘yicha ikkinchi Butunjahon sammiti bo‘lib o‘tdi. Tobora ortib borayotgan tengsizlik, demografik o‘zgarishlar, jadal texnologik va ekologik yangilanishlar sharoitida sammit global mulqot va hamkorlikdagi harakatlar uchun g‘oyat muhim maydon yaratdi.

Qatar poytaxti Dohada o‘tkazilgan ikkinchi Butunjahon sammitida dunyoning 40 dan ortiq davlat va hukumat rahbarlari, 170 nafar vazir, xalqaro tashkilotlar yetakchilari, yoshlar harakatlari liderlari, fuqarolik jamiyati vakillari hamda ekspertlar ishtirok etdi. Jami 14 mingdan ziyod ishtirokchining asosiy e‘tibori ijtimoiy rivojlanish masalalarini oliy darajada muhokama qilish va ijtimoiy taraqqiyotga turki berish, bunda global ko‘lamdagi barqaror rivojlanish yo‘lidan hech kim chetda qolib ketmasligini kafolatlash istiqbollari qaratildi.

BMT Bosh Assambleyasining 2024-yildagi tegishli rezolyutsiyalari bilan 2025-yilda Ijtimoiy rivojlanish bo‘yicha ikkinchi Butunjahon sammitini o‘tkazishga qaror qilingan. Bundan maqsad xalqaro hamjamiyatning Ijtimoiy himoya to‘g‘risidagi Kopengagen deklaratsiyasi va Harakatlar dasturi va ushbu hujjatlar ijrosini ta‘minlashga

Islohot odimlari



sodiqlikni tasdiqlash hamda 2030-yilgacha bo‘lgan Barqaror rivojlanish kun tartibi bajarilishini jadallashtirishdan iborat.

Ijtimoiy rivojlanish bo‘yicha birinchi Butunjahon Kopengagen sammiti yakunlariga nazar

Kopengagen deklaratsiyasi va Harakatlar dasturi dunyo davlatlari rahbarlari tomonidan 1995-yili bo‘lib o‘tgan Ijtimoiy

rivojlanish bo‘yicha birinchi Butunjahon sammitida qabul qilingan. Bu hujjatlarda o‘nta majburiyat — qashshoqlikni tugatish, to‘liq bandlikni ta‘minlash hamda inklyuziv, adolatli va barqaror jamiyatlar qurishning asosiy tamoyillari belgilab berilgan. Kopengagen deklaratsiyasining markazida ijtimoiy himoya turadi, zero, u qashshoqlikni kamaytirish, tenglik va umumiy farovonlikni ta‘minlashning kuchli vositasidir. Ijtimoiy ta‘minot huquqini ro‘yobga chiqarish va ijtimoiy adolatni qo‘llab-quvvatlash uchun universal,

inklyuziv va barqaror ijtimoiy himoya tizimlarini mustahkamlash lozim.

O‘tgan 30 yil davomida xalqaro hamjamiyat ijtimoiy rivojlanish sohasida qator majburiyatlarni o‘z zimmasiga oldi. Xususan:

birinchisi, 2000-yilda Mingyillik rivojlanish maqsadlari (MRM) qashshoqlik, sog‘liqni saqlash va ta‘lim masalalarini hal etish uchun qabul qilindi;

Davomi 3-beta



MARKAZIY OSIYO CHINAKAM BIRDAMLIK DAVRIGA QADAM QO‘YMOQDA

Boshlanishi 1-betda

Syuy TAO,
Xitoy Davlat kengashi huzuridagi
Ijtimoiy rivojlanish tadqiqotlari
markazining Yevroosiyo ijtimoiy
rivojlanish instituti direktori o‘rinbosari:

— O‘zbekiston Prezidenti muallifligidagi
“Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida”
maqolasi bilan batafsil tanishib chiqdim.
Darhaqiqat, Markaziy Osiyo mamlakatlari
o‘ttiz yildan ortiq mustaqillikdan so‘ng
mintaqaviy integratsiya va hamkorlikni
rivojlantirishga ulkan e‘tibor qaratmoqda.
Mintaqa mamlakatlari o‘zaro chambarchas
bog‘liq bo‘lgan boy resurslar va umumiy
madaniy merosga ega. Agar Markaziy
Osiyo davlatlari o‘zaro hamkorlikka tizimli
va do‘stona yondashsa, shubhasiz, butun
mintaqa taraqqiyoti yo‘lida katta foyda
keltiradi.

2017-yilda O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan
Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining
Maslahat uchrashuvlarini tashkil etish g‘oyasi
qo‘shni davlatlar tomonidan qizg‘in qo‘llab-
quvvatlangan edi. 2018-yildan boshlab
Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining
uchrashuvlari muntazam o‘tkazila boshlandi.
Bunday uchrashuvlar doirasida ko‘plab
muammoli masalalar konstruktiv tarzda
hal etildi. Hududiy nizolar, suv taqsimoti,
chegara va boshqa dolzarb masalalar
Maslahat uchrashuvlari kun tartibiga kiritildi.

Bu yutuqlar, birinchi navbatda, iqtisodiy
rivojlanishda o‘z aksini topmoqda. Jumladan,
2022-yildan boshlab Markaziy Osiyo
mamlakatlarining yalpi ichki mahsuloti
ketma-ket uch yil davomida yiliga 5
foizdan ortiq o‘shishni qayd etdi. Bu jahon
iqtisodiyotining o‘rtacha 3 foizlik o‘shish
sur‘atidan sezilarli darajada yuqoridir. Yana
bir e‘tiborga loyiq hodisa — mamlakatlar
o‘rtasida muvofiqlashtirishni kuchaytirish,
yagona bozorni shakllantirish, sanoat va
ta‘minot zanjirlari o‘rtasidagi uzilishlarni
bartaraf etish bo‘ldi.

Shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari
o‘rtasida uzoq yillar davom etib kelgan qator
ziddiyatlar o‘z yechimini topdi. 2022-yilda
Qirg‘iziston va Tojikiston o‘rtasida chegara
va suv masalalari bo‘yicha mojaro kelib
chiqdi. Biroq bir necha yillik hamjihatlikdagi



sa‘y-harakatlardan so‘ng O‘zbekiston,
Tojikiston va Qirg‘iziston o‘rtasida tegishli
shartnomalar imzolaniib, bu nizo konstruktiv
tarzda hal qilindi.

Bundan tashqari, Markaziy Osiyo
davlatlari tashqi siyosat sohasida yagona
muvofiqlashtirilgan pozitsiyani shakllantirdi.
“Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi”,
“Markaziy Osiyo — Xitoy”, “Markaziy
Osiyo — Rossiya” va boshqa hamkorlik
modellari mintaqaning umumiy salohiyatini
yuksaltirmoqda.

O‘zbekiston davlat rahbarining maqolasi
menda katta taassurot qoldirdi. Bunday keng
ko‘lamli islohotlar butun Markaziy Osiyo
tarixida yangi sahifa ochmoqda. Prezident
Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, vaqt
va hayot sinovidan o‘tgan, ishonchli, yaxshi
qo‘shnichilik va o‘zaro qo‘llab-quvvatlashga
asoslangan model yaratilmoqda.

Adam SAUD,
Pokistondagi Bahriya universitetining
Gumanitar va ijtimoiy fanlar fakulteti
dekani, professor:

— O‘zbekiston Prezidentining
“Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida”

sarlavhali maqolasini katta qiziqish
bilan o‘qib chiqdim. Albatta, Prezident
Shavkat Mirziyoyevning ushbu maqolasi
haqida fikr bildirish har bir ekspertga katta
mas‘uliyat yuklaydi. O‘zbekiston Prezidenti
Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni
ta‘minlash, yillar davomida to‘planib qolgan
muammolarni, xususan, davlat chegaralari
bilan bog‘liq holatlarni hal etishdagi sa‘y-
harakatlarini hech kim inkor etolmaydi.
Maqolada ana shu jihatlar qalamga olingan,
mintaqada kechayotgan bugungi voqealiklar,
mamlakatlar o‘rtasida so‘nggi yillarda
vujudga kelgan yaqin qo‘shnichilik aloqalari
va mavjud muammolar chuqur tahlil qilingan.

Markaziy Osiyo o‘z taraqqiyotining
yangi, tarixiy ahamiyatga molik davriga
qadam qo‘ymoqda. Bugun chinakam
birdamlik bosqichiga o‘tilyapti. Mintaqada
uzoq yillar davomida ilk bor birgalikda
oldinga qarab borish uchun poydevor
bo‘lib xizmat qilayotgan o‘zaro ishonch,
yaxshi qo‘shnichilik va hurmat muhiti
shakllanmoqda.

Mintaqaviy hamkorlik borasida bosh-
langan yangi bosqichning eng muhim
yutuqlaridan biri — chegara masalalari

uzil-kesil hal etilganidir. Yaqin-yaqingacha
imkonsiz tuyulgan bu muammoning yechimi
bugun real holatga, bir paytlar mintaq
davlatlarini ajratib turgan chegaralar esa
do‘stlik va hamkorlik ko‘prigiga aylandi.
2025-yil mart oyida O‘zbekiston, Qirg‘iziston
va Tojikiston o‘rtasida uch davlatning
chegaralari tutashgan nuqta to‘g‘risidagi
Shartnoma va Xo‘jand deklaratsiyasining
imzolangan tarixiy ahamiyatga molik
hodisadir. Buni haqli ravishda olamshumul
voqea deb atash mumkin.

Men har safar O‘zbekistonga borganimda
ulkan o‘zgarishlarga guvoh bo‘laman. Bu
quvonarli, albatta. Shu o‘rinda ta‘kidlash
kerakki, O‘zbekiston Prezidenti nafaqat
Markaziy Osiyo mintaqasini birlashtirdi,
balki Markaziy va Janubiy Osiyo o‘zaro
bog‘liqligini yanada mustahkamlashda ham
asosiy rol o‘ynamoqda. Prezident Shavkat
Mirziyoyevning Janubiy Osiyo mamlakatlari,
xususan, Pokiston bilan hamkorlikni
rivojlantirishga qaratayotgan yuqori e‘tibori
mamlakatlarimiz va xalqlarimiz farovonligini
ta‘minlashga muhim hissa bo‘lib qo‘shilyapti.

Prezident Shavkat Mirziyoyev “Yangi
Markaziy Osiyo”ni barpo etish borasida
boshlangan jarayon ortga qaytmas yo‘l
ekanini ta‘kidlar ekan, mintaqada tinchlik,
barqarorlik va farovonlikni ta‘minlash
yo‘lidagi tarixiy birlikni asrab-avaylash
barcha mamlakatlar oldidagi umumiy vazifa
ekanini bildirdi. Davlat rahbarining bu
fikrlari Janubiy Osiyo mamlakatlari uchun
birdek muhim deb o‘ylayman.

Viktor KIM,
Tojikiston Fanlar akademiyasi Falsafa,
siyosatshunoslik va huquq instituti ilmiy
xodimi:

— Toshkentda bo‘lib o‘tadigan Markaziy
Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi
Maslahat uchrashuvi arafasida e‘lon qilingan
O‘zbekiston Prezidentining “Markaziy Osiyo
yangi davr ostonasida” sarlavhali maqolasi
xalqaro ekspertlar e‘tiborini tortdi.

Davlat rahbari maqolada ta‘kidlaganidek,
Markaziy Osiyo o‘z taraqqiyotining yangi,
tarixiy ahamiyatga molik davriga qadam
qo‘ymoqda. Bugun biz chinakam birdamlik
bosqichiga o‘tyapmiz.

Asosiy faktlar, voqealar, Markaziy Osiyo
mintaqasining 2017-yildan 2025-yilgacha
bo‘lgan rivojlanish jarayonlari maqolada

izchil, mantiqiy va aniq aks ettirilgan.
Maslahat uchrashuvlari tashkil etilgan 2017-
yil mintaqaviy hamkorlik tarixida muhim
burilish bo‘ldi. Mintaqa yetakchilari ilk bor
tashqi vositachilarsiz tizimli va muntazam
muloqotni tashkil etdi. Bu ochiq, ishonchli va
umumiy manfaatlarini anglashga asoslangan
yangicha siyosiy jarayonni taqdim etdi.
Mazkur Maslahat uchrashuvlari davomida
eski paytdan qolgan gina-kudratlarga chek
qo‘yildi, ishonchsiz munosabatdan haqiqiy
hamkorlikka o‘tildi.

**O‘zbekiston Prezidenti
Shavkat Mirziyoyevning
maqolasi allaqachon
yangi Markaziy Osiyoning
shakllanish va rivojlanish
jarayonini ilmiy idrok
etishni talab qilmoqda.
Yangi Markaziy Osiyo
qiyofasini belgilab beruvchi
“Davlat rahbarlarining
Maslahat uchrashuvi
“Markaziy Osiyo jarayoni”,
“Yangi siyosiy tafakkur”,
“Markaziy Osiyo plyus”,
“Yangi iqtisodiy voqelik”,
“Yangi mintaqaviy o‘ziga
xoslik” kabi tushunchalar
ilmiy va siyosiy muomalaga
kiritilmoqda.**

Yangi Markaziy Osiyo — ishonchli,
ochiq va umumiy manfaatlarni anglashga
asoslangan siyosiy tafakkur timsoliga
aylanmoqda. Markaziy Osiyo davlatlari
rahbarlarining amaliy harakatlari mintaqada
tinchlik, barqaror taraqqiyot va ishonchli
sheriklik yo‘lini belgilab bermoqda. Shavkat
Mirziyoyev ta‘biri bilan aytganda, devor
emas, ko‘prik barpo etilmoqda.

Tokon MAMITOV,
Qirg‘iziston Milliy fanlar akademiyasi
Davlat va huquq instituti direktori,
siyosiy fanlar doktori, professor, taniqli
siyosatshunos:

— O‘zbekiston Prezidenti Shavkat
Mirziyoyevning maqolasi jadal geosiyosiy
o‘zgarishlar davrida Markaziy Osiyoning
roli to‘g‘risida va ijtimoiy-iqtisodiy
transformatsiyalar bo‘yicha mintaqaviy

hamkorlikning zamonaviy doktrinasini
shakllantiruvchi fundamental dasturiy
hujjatdir.

“Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida”
maqolasida strategik qarash, tarixiy realizm
va ishonch, o‘zaro hurmat va pragmatizmga
asoslangan zamonaviy siyosiy madaniyat
uyg‘unligi namoyon bo‘ladi. Markaziy Osiyo
tom ma‘noda barqaror rivojlanish, mintaqaviy
jipslashuv va xalqaro subyektilikning yangi
davriga qadam qo‘ydi.

O‘zbekiston Prezidenti haqli ravishda
mintaqa misli ko‘rilmagan yuksalishni
boshdan kechirayotganini ta‘kidlamoqda.
Iqtisodiy ko‘rsatkichlar yangi mintaqaviy
iqtisodiy makon shakllanayotganini
tasdiqlaydi. Xususan, YIMning 2,5
barobarga o‘shishi, tashqi savdoni ikki
barobarga oshirish, o‘zaro savdoning ikki,
investitsiyalarning 5,6 barobarga ortishi
o‘zaro hamkorlik aloqalarining yuksak
darajada tashkil etilayotganidan dalolat
beradi.

Markaziy Osiyo o‘z ta‘minot zanjirlari —
sanoat zonalar, qo‘shma GES va energetika
tizimlari, transport yo‘laklari va logistika
klasterlarini shakllantirmoqda. Bu zamonaviy
“Mintaqaviy ishlab chiqarish sinergiyasi”
modeliga mos keladi.

Transafg‘on temir yo‘li, “Shimol-
Janub” va “O‘rta koridor” yo‘laklari, sanoat
kooperatsiyasi bo‘yicha xalqaro markazlar
tashkil etish, chegara tartib-taomillarini
soddalashtirish alohida ahamiyatga ega.

Maqolada muhim fakt to‘g‘ri aks
ettirilgan: mintaq ilk bor tashqi kuchlar
tomonidan yagona siyosiy subyekti sifatida
qabul qilina boshlandi. O‘ndan ortiq
platformalar mavjud bo‘lib, ular davlat
rahbarlari, hukumatlararo mexanizmlar
va aniq tarmoq loyihalari darajasiga
ko‘tarilgan. Bu Markaziy Osiyoning mus-
taqil geosiyosiy markaz sifatida e‘tirof
etilishini anglatadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev asosli
ravishda ta‘kidlaydi: Afg‘oniston —
Markaziy Osiyoning periferiyasi emas,
balki tarkibiy qismidir. O‘zbekistonning
yondashuvi “Inklyuziv xavfsizlik”
tamoyillariga, infratuzilma orqali iqtisodiy
barqarorlashtirish strategiyasiga, mojarodan
keyingi rivojlanishning zamonaviy
nazariyalarga mos keladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston
rahbarining maqolada keltirilgan strategik
ahamiyatga ega g‘oyalari Markaziy Osiyo
mamlakatlari uchun mintaqaviy milliy
suverenitetni mustahkamlaydi, teng
huquqliligini kafolatlaydi, energetika va
suv sohasidagi qo‘shma loyihani amalga
oshiradi, yoshlar uchun ilm-fan va ta‘lim
integratsiyasini yo‘lga qo‘yadi.

“Dunyo” AA



16-noyabr – Xalqaro bag‘rikenglik kuni

TINCHLIK VA TARAQQIYOTNING MUSTAHKAM POYDEVORI

Sodiq TOSHBOYEV,
Din ishlari bo‘yicha
qo‘mita raisi



Bag‘rikenglik va
do‘stlik o‘lkasi

Mazkur qadriyat yangi O‘zbekistonda
ham izchil davom ettirilmoqda. Xususan,
inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash,
dinlararo muloqotni kuchaytirish, vijdon
erkinligini kafolatlash, bag‘rikenglik
g‘oyalarni tarannum etish, millatlararo
totuvlikni mustahkamlash davlat siyosatining
ustuvor yo‘nalishlaridandir.

Ushbu siyosatning huquqiy va amaliy
asoslari uzoq yillarga mo‘ljallangan
konsepsiya va strategiyalar orqali yanada
mustahkamlanmoqda. Xususan, 2025-yil
25-fevraldagi O‘zbekiston Respublikasida
fuqarolarning vijdon erkinligini ta‘minlash

va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi
mazkur yo‘nalishdagi faoliyatning
mustahkam huquqiy asosi bo‘ldi.

Konsepsiyada davlat va din munosabatlari,
turli konfessiyalar o‘rtasida o‘zaro hurmat va
tinchlikni ta‘minlashning mexanizmlari aniq
belgilab berildi. Bu esa jamiyatda o‘zaro
totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini
yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Diniy-ma‘rifiy sohadagi
ulkan islohotlar

So‘nggi yillarda mamlakatimizda diniy-
ma‘rifiy sohada tub o‘zgarishlar amalga
oshirildi. Jumladan, 130 dan ortiq yangi diniy
tashkilot, 3 ta oliy va 1 ta o‘rta maxsus islom

ta‘lim muassasasi, 102 ta masjid hamda 24 ta
noislomiy diniy tashkilot davlat ro‘yxatidan
o‘tkazildi.

Shu bilan birga,
Prezidentimiz tashabbusi
bilan Islom sivilizatsiyasi
markazi, Imom Buxoriy,
Imom Moturidiy, Imom
Termiziy, Bahouddin
Naqshband xalqaro ilmiy-
tadqiqot markazlari, Hadis
ilmi maktabi, Mir Arab oliy
madrasasi va O‘zbekiston
xalqaro islomshunoslik
akademiyasi faoliyati yo‘lga
qo‘yildi.



Bu muassasalarda yosh avlodni
buzg‘unchi g‘oyalardan asrash, ularni
bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash borasida
“Jaholatga qarshi ma‘rifat” g‘oyasi asosida
salmoqli ishlar bajarilmoqda.

Tolerantlik siyosatining
xalqaro maydondagi
aks sadosi

Bugun dunyoda kechayotgan murakkab
geosiyosiy jarayonlar, tobora kuchayib
borayotgan qarama-qarshilik va nizolar,
qurolli to‘qnashuvlar, terrorizm va
ekstremizm tahdidlari saqlanib qolayotgani
nafaqat xavfsizlikka, balki barqaror
rivojlanish, ijtimoiy hamjihatlik va dinlararo
totuvlikka ham jiddiy xavf solmoqda. Ana

shunday murakkab sharoitda mamlakatimiz
diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni
ichki va tashqi siyosatning asosiy tamoyili
sifatida belgilab, amalda namoyon etmoqda.

Davlatimiz rahbari BMT Bosh
Assambleyasining 80-sessiyasida O‘zbekis-
tonda bag‘rikenglik siyosatini izchil amalga
oshirish, islom ma‘rifati va insoniylik
g‘oyalarni chuqur o‘rganish hamda ularni
jahon hamjamiyatiga yetkazish yo‘nalishida
keng ko‘lamli ishlar bajarilayotganini alohida
ta‘kidladi.

Qisqasi, yurtimizning diniy bag‘rikenglik
sohasidagi siyosatini xalqaro maydonda
keng targ‘ib etish, shubhasiz, sifat va samara
jihatdan yangi bosqichga chiqdi. O‘tgan qisqa
muddatda Misr, Turkiya, BAA, Ozarbayjon,
Malayziya, Saudiya Arabistoni, Iordaniya,
Indoneziya, Qozog‘iston, Tojikiston va
Qirg‘iziston kabi davlatlarning diniy sohaga
mas‘ul vazirlik va idoralari, ilmiy-tadqiqot
markazlari hamda ta‘lim muassasalari bilan
147 ta hamkorlik memorandumi imzolandi.

Yangi O‘zbekiston fenomeni

BMTning maxsus rezolyutsiyasiga ko‘ra,
noyabrning 16 sanasi Xalqaro bag‘rikenglik kuni
etib belgilangan. Ushbu kun munosabati bilan
ba‘zi davlatlarda faqat tor doiradagi tadbirlar
uyushirilsa, O‘zbekistonda har yili an‘anaviy
ravishda “Bag‘rikenglik haftaligi” o‘tkaziladi.
Uning doirasida mamlakat bo‘ylab ilmiy-

ma‘rifiy va madaniy tadbirlar tashkil etiladi.
Bu, shubhasiz, jamiyatda diniy bag‘rikenglik
va millatlararo totuvlik qadriyatlarini yanada
mustahkamlashga xizmat qiladi.

Haftalik doirasida jamiyatimizda diniy
bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik, tinchlik
va osoyishtalikni ta‘minlash, yosh avlodni
vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo‘lida samarali
faoliyat yuritayotgan turli soha vakillarini “Diniy
bag‘rikenglik” ko‘krak nishoni bilan taqdirlash
yaxshi an‘anaga aylangan.

O‘zbekistonning “Bag‘rikenglik
haftaligi” tashabbusini xalqaro maydonda
ommalashtirish dunyo miqyosida tinchlik,
totuvlik va o‘zaro hurmat muhitini yanada
mustahkamlashda ijobiy samara beradi.

Haqiqatan, turli din va madaniyat vakillariga
hurmat bilan munosabatlarda bo‘lish, millatlar
o‘rtasida do‘stlik va hamjihatlik muhitini
mustahkamlash O‘zbekiston tajribasining
asosiy ustunidir. Bu yo‘nalishdagi barcha
tashabbus xalqaro hamjamiyat tomonidan
qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Bag‘rikenglik faqat bir kunlik tadbir yoki
shior emas, u xalqimizning asiy an‘anasini
davlat siyosatining muhim yo‘nalishidir.
Zotan, bugungi shiddatli davrda insoniyatni
birlashtiradigan eng muhim qadriyatlardan
biri, shubhasiz, bag‘rikenglik. Shu tufayli
har birimiz bu ezuq g‘oyani hayotimizga
tatbiq etish orqali jamiyatda bag‘rikenglik
g‘oyasining yanada mustahkamlanishiga
hissa qo‘shaylik!



Boshlanishi 1-betda

ikkinchisi, 2015-yilda **Barqaror rivojlanish maqsadlari** (BRM) ishlab chiqildi, ular yanada adolati va barqaror kelajakka erishish yo'llarini belgilab berdi;

uchinchisi, 2017-yilda **BMTning Qashshoqlikni tugatish bo'yicha uchinchi o'n yilligi** (2018-2027-yillar) e'lon qilindi. Ushbu dastur qashshoqlikni tugatishga oid xalqaro darajada kelishilgan rivojlanish maqsadlarini samarali va muvofiqlashtirilgan tarzda amalga oshirishga ko'maklashish uchun ishlab chiqildi;

to'rtinchisi, 2021-yilda **Umumiy kun tartibi** qabul qilindi, u yangilangan inklyuziv ko'p tomonlama hamkorlikka da'vat etdi;

besinchisi, 2024-yilda **Kelajak uchun bitim** imzolandi. U Global raqamli shartnoma va Kelajak avlodlar to'g'risidagi deklaratsiyani o'z ichiga olgan, tinchlik va xavfsizlik, barqaror rivojlanish, iqlim o'zgarishi, raqamli hamkorlik, inson huquqlari, gender tenglik, yoshlar va kelajak avlodlar bilan bog'liq masalalarni qamraydi.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, global miqyosda **Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida belgilangan 137 ta vazifaning 35 foizi reja bo'yicha yoki o'rtacha muvaffaqiyat bilan bajarilmoqda. Vazifalarning 47 foizi yetarli darajada tez sur'atda bajarilmayapti, 18 foizi bo'yicha esa 2015-yildagi boshlang'ich ko'rsatkichlarga nisbatan orqaga ketish kuzatilmoqda.**

Barqaror rivojlanish sohasidagi bir qancha maqsadlarga erishishdagi taraqqiyot note'kis va cheklangan xususiyatga ega, biroq barcha hududlar va mamlakatlarda sezilarli yutuqlar qayd etilayotgani bu borada o'zgarishlar bo'lishi mumkinligini ko'rsatmoqda. **Kopengagen deklaratsiyasi qabul qilganidan keyingi 30 yilda dunyoda ishsizlik darajasi pasaydi va o'tta qashshoqlik ko'rsatkichlari ikki baravar qisqardi.**

So'nggi o'ttiz yil ichida 1,5 milliard kishi qashshoqlikdan qutqarildi. Xususan, 2015-yildan buyon global pandemiyaning jiddiy oqibatlariga qaramay, butun dunyo bo'ylab o'ta qashshoqlik darajasi pasaydi va ishlaydigan kambag'allar toifasiga kiruvchi shaxslar soni 20 millonga qisqardi.

Sog'liqni saqlash ko'rsatkichlari ham yaxshilandi: 2024-yilda inson umri davomiyli 1995-yil bilan solishtirganda 8,4 yilga uzayib, 73,3 yoshga yetdi. Bu birlamchi tibbiy-sanitariya yordami, immunizatsiya va kasalliklarga qarshi kurash choralarini kengayishi hamda bolalar ovqatlanishini yaxshilash natijasidir. Dunyo aholisining yarmidan ko'pi (52,4 foizi) birinchi marta kamida bitta ijtimoiy himoya nafaqasi bilan qamrab olindi. Bu 2015-yildagi 42,8 foizli ko'rsatkichdan yuqori hisoblanadi. O'rta maktabning yuqori sinflarini bitirayotgan yoshlar ulushi 2015-yildagi 53 foizdan 2024-yilda 60 foizgacha ko'tarildi va savodxonlik darajasi oshmoqda. Bundan tashqari, ta'lim sohasida gender tafovut izchil qisqarishi kuzatilmoqda.

Shunday bo'lsa-da, jiddiy muammolar saqlanib qolmoqda: BMT Taraqqiyot dasturining baholashiga ko'ra, **taxminan 800 million kishi hali ham o'ta qashshoqlikda kun kechiryapti. Dunyoda bir milliarddan ortiq odam hamon kambag'allik sharoitida yashayotgan bo'lsa, 40 foizi ijtimoiy himoyadan foydalanish imkoniyatiga ega emas.** Hanuzgacha sezilarli tengsizlik kuzatilmoqda, bu, birinchi navbatda, ayollar va yoshlarga ta'sir qiladi. Tarkibiy tengsizlikni bartaraf etish uchun iqtisodiy o'sishning o'zi yetarli emas: u iqlim o'zgarishi, demografik muammolar va qajarlar tufayli yanada kuchaymoqda.

Texnologiyalar ijtimoiy birdamlik zaiflashishi va o'zaro ishonch yo'qolishini tezlashtirmoqda. Raqamli platformalar aloqani saqlab qolish imkoniyatini kengaytirsa-da, ayni paytda ular dezinformatsiya va nafarat tilingni ta'sirini kuchaytirmoqda.

Ijtimoiy taraqqiyot bo'yicha ikkinchi Butunjahon Doha sammiti: mazmuni va imkoniyatlari

Kopengagen sammitidan keyin 30 yil o'tgach, ikkinchi Butunjahon Doha sammiti hech kimni ortda qoldirmaslik va har bir insonga — yoshi, qobiliyati, jinsi yoki kelib chiqishidan qat'i nazar — munosib yashash va rivojlanish imkoniyatini berish bo'yicha yangilangan global qat'iyatni amalda namoyon etdi.

Jahon yetakchilari Ijtimoiy taraqqiyot bo'yicha ikkinchi Butunjahon sammitida Doha siyosiy deklaratsiyasini qabul qilib, yanada



adolatli va inklyuziv jamiyat qurishga global sadoqatni tasdiqladi. Hujjatda ta'kidlanganidek, **ijtimoiy taraqqiyot nafaqat axloqiy imperativ, balki tinchlik, barqarorlik va iqtisodiy o'sishning zaruriy shartidir.**

Sammit doirasida Ijtimoiy rivojlanish bo'yicha yechimlar forumi muhokamalari, Ochiqlik va qashshoqlikka qarshi kurash bo'yicha global alyans yetakchilarining birinchi yig'ilishi, "Ta'lim — yangi ijtimoiy shartnomaning asosi" nomli yuqori darajadagi tadbir, shuningdek, Fuqarolik jamiyati forumi, Xususiy sektor forumi hamda interaktiv "Yechimlar maydoni" kabi muhim tadbirlar bo'lib o'tdi.

Bugungi kunda 670 milliondan ortiq odam ochlikdan aziyat chekayotgan, 2,3 milliard kishi esa oziq-ovqat muammosini boshdan kechirayotgan bir paytda Ochiqlik va qashshoqlikka qarshi kurash bo'yicha global alyansning yuqori darajadagi birinchi yig'ilishida inqiroz oziq-ovqat yetishmovchiligi bilan emas, balki tengsizlik, mojarolar va noto'g'ri siyosiy qarorlar bilan bog'liqligi ta'kidlandi. Braziliyaning "Katta yigirmatalik"dagi raisligi davrida, ya'ni 2024-yilda tashkil etilgan Global alyansga 200 ga yaqin ishtirokchi — hukumatlar, mintaqaviy birlashmalar, xalqaro tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari kiradi. Uchrashuvning asosiy maqsadi — alyans ichidagi hamkorlikni kuchaytirish, ijtimoiy himoyani kengaytirish, qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash va iqlim o'zgarishiga chidamli dehqonchilikka sarmoya kiritishdan iborat. Bu hukumatlarning "barcha uchun ijtimoiy rivojlanishga erishish maqsadida qulay iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va huquqiy muhit" yaratish bo'yicha majburiyatlarini tasdiqlovchi global chaqiriqdir.

Ijtimoiy adolat uchun global koalitsiya forumida yashash minimumini oshirish, mehnat sohasidagi asosiy tamoyillar va huquqlarga rioya etish, ijtimoiy muloqotni mustahkamlash, ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish, istiqbolli kasb-hunar ta'limi tizimlarini yaratish bo'yicha tashabbuslar qashshoqlikni tugatish, munosib ish o'rinlari ochish hamda ijtimoiy o'zgarishlar va ijtimoiy integratsiyani rag'batlantirishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Bugungi kunda yuqori daromadli mamlakatlar ijtimoiy himoyaga (sog'liqni



saqlashdan tashqari) yalpi ichki mahsulotning taxminan 16 foizini sarflaydi. Past daromadli mamlakatlarda bu xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 1 foizini tashkil etadi. Bu esa investitsiyalar hajmini oshirish zarurligini ko'rsatadi. Majburiyatlarga muvofiq, mamlakatlarga qamrovni har yili 2 foiz kengaytirishga intilish tavsiya etilmoqda.

Ta'lim qashshoqlik halqasini uzish, munosib ish uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirish, shuningdek, tenglik va inklyuzivlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Erishilgan yutuqlarga qaramay, millionlab bolalar hamon maktabga bormayapti va global inqirozlar, jumladan, mojarolar, iqlim o'zgarishi, pandemiyalar va raqamli tengsizlik mashaaqqat bilan qo'lga kiritilgan yutuqlarni yo'qqa chiqarmoqda. Ijtimoiy sammitning Doha deklaratsiyasida umr bo'yi ta'lim olish yondashuvi doirasida qashshoqlikni kamaytirish strategiyalarining asosiy tarkibiy qismi sifatida sifatli ta'limni joriy etishga da'vat mavjud.

Doha deklaratsiyasida, shuningdek,

kelajakdagi mehnat bozorlari uchun hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan "yashil" va raqamli iqtisodiyotga o'tish uchun zarur ko'nikmalarning muhimligi ta'kidlangan.

Doha siyosiy deklaratsiyasi xalqaro hamjamiyatning 1995-yilgi Kopengagen deklaratsiyasi va 2030-yilgacha bo'lgan Barqaror rivojlanish kun tartibi tamoyillariga sodiqligini va bunday yondashuvning davomiyligini tasdiqlaydi. Deklaratsiyada bir-birini to'ldiruvchi uchta ish yo'nalishi haqida so'z yuritiladi. Bular qashshoqlikni tugatish, barcha uchun bandlik va munosib mehnatni ta'minlash hamda yanada inklyuziv jamiyat



yaratishdir. Doha deklaratsiyasi ijtimoiy adolati tinchlik, xavfsizlik va inson huquqlari bilan bog'laydi hamda iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish sohasida shoshilinch choralar ko'rishga chaqiradi.

Ushbu deklaratsiya qashshoqlik va ochlikka qarshi kurashish, ta'lim, sog'liqni saqlash, iqlim o'zgarishlariga bardoshlilik va gender tenglikni qamrab olgan keng ko'lami, o'zaro bog'liq yechimlarni talab etadi. Deklaratsiya qoidalarning bajarilishini nazorat qilish BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi huzuridagi Ijtimoiy rivojlanish komissiyasiga yuklatilgan.

BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish ta'бири bilan aytganda, "Doha siyosiy deklaratsiyasi — bu rivojlanish uchun turkii, umumiy ijtimoiy himoyani kengaytirish, sog'liqni saqlash va ta'limdan teng foydalanishni ta'minlash hamda raqamli tafovutni bartaraf etishga qaratilgan insonlar uchun rejadir". BMT Bosh kotibi rivojlanish va iqlim tashabbuslarini moliyalashtirishdan foydalanish imkoniyatini ta'minlash uchun, ayniqsa, qarz muammolariga duch kelayotgan rivojlanayotgan mamlakatlarda global moliyaviy tizimni zudlik bilan isloh qilish zarurligini ta'kidladi.

BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish ta'bir bilan aytganda, "Doha siyosiy deklaratsiyasi — bu rivojlanish uchun turkii, umumiy ijtimoiy himoyani kengaytirish, sog'liqni saqlash va ta'limdan teng foydalanishni ta'minlash hamda raqamli tafovutni bartaraf etishga qaratilgan insonlar uchun rejadir". BMT Bosh kotibi rivojlanish va iqlim tashabbuslarini moliyalashtirishdan foydalanish imkoniyatini ta'minlash uchun, ayniqsa, qarz muammolariga duch kelayotgan rivojlanayotgan mamlakatlarda global moliyaviy tizimni zudlik bilan isloh qilish zarurligini ta'kidladi.

Ikkinci tashabbus — Ijtimoiy mas'uliyat va munosib mehnat bo'yicha global tashabbusni ishlab chiqish. Xalqaro mehnat tashkiloti hisobotiga ko'ra, 2024-yilda global ishsizlik darajasi 5 foizni tashkil etgan. Yuqori texnologiyalar va sun'iy intellektning jadid sur'atlarda joriy etilishi butun dunyoda millionlab ish o'rinlari yo'qolishiga sabab bo'lmoqda. Bunday sharoitda hukumat va biznes sektori o'zaro ijtimoiy hamkorlar sifatida xodimlarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratishi lozim.

So'nggi sakkiz yil ichida O'zbekiston iqtisodiyotiga 130 milliard dollar investitsiya jalb etildi, ko'plab yangi ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirildi, doimiy ish o'rinlari yaratildi. O'tgan davrda milliy iqtisodiyotimiz 2 barobar o'sgani, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad yil yakuniga qadar 3,5 ming dollarga yetishi muhim omil hisoblanadi. Har bir insonning huquq va erkinliklarini, mehnatni muhofaza qilishni, kafolatlangan ijtimoiy himoyadan foydalanishni ta'minlash uchun mustahkam qonunchilik bazasi yaratildi. Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiya, Mehnat kodeksi, "Aholi bandligi to'g'risida"gi va "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi.

Uchinchi tashabbus — Ochiqlik va qashshoqlikka qarshi kurash bo'yicha global alyansning kelgusi sammitlaridan birini O'zbekistonda o'tkazish va ta'lim masalasini kun tartibidagi asosiy masala sifatida belgilash. Bugungi kunda savodsizlikning yillik iqtisodiy zarari 1,4 trillion AQSH dollariga baholanoqda. Bu holat yosh avlod uchun ijtimoiy hayot va mehnat bozorida o'z o'rnini topishni qiyinlashtiradi hamda tengsizlikning keskin o'sishiga olib keladi.

O'zbekiston Ochiqlik va qashshoqlikka qarshi kurash bo'yicha global alyansga rasman qo'shildi, bu esa mamlakatimizda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash bo'yicha global sa'y-harakatlarni kuchaytirish yo'lidagi muhim qadamdir. Ushbu qadam global oziq-ovqat xavfsizligiga oid tobora ortib borayotgan xavf-xatarlarga hamda

aholi qatlamlarini samarali himoya qilish ta'minlanayotgan jamiyat barpo etilayotgani alohida ta'kidlandi.

Dunyoda murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar yuz berayotgan va o'zaro ishonchsizlik ortib borayotgan sharoitda O'zbekiston Prezidenti global ijtimoiy siyosatni mustahkamlashga qaratilgan qator yangi tashabbus va takliflarni ilgari surdi.

Birinchi tashabbus — Global ijtimoiy adolat fondini ta'sis etish. BMT ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyoda 1,1 milliarddan ortiq kishi qashshoqlikda hayot kechirmoqda. O'zbekistonda davlat

O'zbekistonning ochlik, qashshoqlik va tengsizlik bilan bog'liq muammolari hal etishda faol ishtirok etish istagiga mutanosibdir. Global alyansda ishtirok etish mamlakatga tajriba almashish, xalqaro sarmoyalarni jalb qilish va ushbu dolzarb masalalarni hal etish uchun boshqa davlatlar va tashkilotlar bilan qo'shma dasturlarni amalga oshirish bo'yicha noyob imkoniyatlarni taqdim etadi.

To'rtinchi tashabbus — O'zbekistonda Migrantlar va ularning oilalarini ijtimoiy va huquqiy himoya qilish bo'yicha xalqaro forum o'tkazish va Global dastur qabul qilish. Hozirgi kunda dunyo bo'ylab 300

ekildi. 2030-yilga kelib, butun hududning 80 foizigacha maydoni yashil o'simliklar bilan qoplanadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari tomonidan Iqlim o'zgarishiga moslashish strategiyasi ishlab chiqilib, bir ovvozdan ma'qullandi. O'zbekiston Orol dengizi qurishining oqibatlarini yumshatish, suvdan oqilona foydalanish, "toza" energiya manbalari ulushini kengaytirish dasturlari doirasida xalqaro tashkilotlar bilan samarali hamkorlik qilmoqda. Degradatsiyaga uchragan yer maydonini qisqartirish va iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish maqsadida "Yashil makon" loyihasi doirasida keng ko'lami ko'klamzorlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Prezidentimizning ijtimoiy rivojlanish bo'yicha ikkinchi Butunjahon sammitidagi ishtiroki asosida yangi O'zbekistonda yoshlar siyosati nechog'liq muhim ekani yana bir bor ta'kidlandi. Sentyabr oyida BMT Bosh Assambleyasida so'zga chiqqan O'zbekiston rahbari **qarorgohi Toshkent shahrida joylashgan Tinchlik uchun butunjahon yoshlar harakatini tuzish** tashabbusini ilgari surgan edi. BMTning "Yoshlar — 2030" strategiyasini faol amalga oshirayotgan o'nta davlat qatoriga kirgan mamlakatimiz yoshlar siyosatidagi taraqqiyotda yetakchilik qilmoqda.

O'zbekiston Prezidenti yana bir bor **"Xalqaro taraqqiyot yo'lida ijtimoiy kelishuvni yangilash, har bir inson uchun munosib hayot tarzini yaratish"** zarurligini ta'kidladi. O'zbekiston Doha siyosiy deklaratsiyasini to'liq qo'llab-quvvatlati va uni amalga oshirishda faol ishtirok etishga tayyorligini bildirdi.

Yangi O'zbekiston — konstitutsiyaviy ijtimoiy davlat

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida **ijtimoiy davlat prinsipi mustahkamlandi.** Xususan, unda davlat fuqarolarning bandligini ta'minlashi, ularni ishsizlikdan himoya qilishi, kambag'allikni qisqartirish choralarini ko'rish, fuqarolarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etishi hamda rag'batlantirishi belgilab qo'yilgan.

Kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy himoya bo'yicha asosiy vazifalar hamda chora-tadbirlar qonunchilik va davlat strategiyalarida o'z aksini topgan. Jumladan, "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Ushbu faoliyatni yuritish maqsadida ilgari 6 ta davlat tashkilotiga yuklatilgan vakolatlarini birlashtirish asosida Ijtimoiy himoya milliy agentligi va "Inson" ijtimoiy xizmat ko'rsatish markazlari tashkil etildi.

Muhimi, "O'zbekiston — 2030" strategiyasiga muvofiq, 2026-yilga kelib, kambag'allik darajasini 2022-yildagidan ikki baravar kamaytirish, 2030-yilga borib esa kambag'allikka tushish xavfi ostida bo'lgan 4,5 million kishining daromadini oshirish va ijtimoiy sheriklik asosida 500 ming malakali mutaxassis tayyorlash rejalashtirilgan.

So'nggi 8 yilda mamlakatimizda 7 million-dan ortiq aholi kambag'allikdan chiqarildi, kambag'allik darajasi 35 foizdan 6,6 foizga tushdi. Faqatgina joriy yilning o'zida 2 million 700 ming fuqaroga ijtimoiy xizmat va yordamlar ko'rsatildi. Jumladan, parvarishga muhtoj kambag'al oila a'zolari uchun yangi turgadi ijtimoiy xizmatlar yo'lga qo'yildi, shuningdek, mehnatga laqoyatli 50 ming fuqaro ish bilan ta'minlandi.

Dunyoga tobora ochilayotgan, jadal ijtimoiy islohotlar yo'lidan borayotgan yangi O'zbekiston "davlat — xalq uchun" tamoyiliga qat'iy amal qilib, global o'zgarishlarning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. **Mamlakatimiz Barqaror rivojlanish maqsadlarining global indeksi bo'yicha eng ilg'or beshta davlat qatoriga kirdi.** BRMga erishish doirasida BMT bilan hamkorlikning yangi besh yillik dasturi imzolandi. Xalqaro hamkorlar bilan birgalikda sayyoraviy miqyosda qator tadbirlar, xususan, **"Ijtimoiy rivojlanish va adolat yo'lida parlament harakatlari"** mavzusida **Parlamentlararo ittifoqning 150-assambleyasi, "Kambag'allikdan farovonlik sari" III xalqaro forumi, Samarqand xalqaro iqlim forumi** o'tkazildi.

Bugungi kunda BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish, raqamli transformatsiyani ilgari surish, davlat xizmatlarini ko'rsatishda innovatsion yechimlarni qo'llash, davlat boshqaruvi institutlari samaradorligini tubdan oshirish bo'yicha ilg'or xalqaro tajriba almashish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. BMTga a'zo davlatlar Kelajak uchun paktni qabul qilish va yanada inklyuziv hamda samarali tizim asosida "ko'p tomonlamalikning yangi asosini yaratish" majburiyatini olish orqali birdamlikni mustahkamlash uchun qadam qo'ydi.

Ikkinchi Butunjahon Doha sammiti yakunlari shuni ko'rsatmoqdadiki, ushbu uchrashuv siyosat masalalari bo'yicha yangi global konsensusga erishish, majburiyatlarini mustahkamlash va tenglik, birdamlik hamda umumiy farovonlikka barqaror o'tish uchun asos yaratish yo'lida ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirishda ta'sirchan turkii bo'ladi. Binobarin, inson salohiyatiga sarmoya kiritish va asosiy xizmatlardan barcha foydalanishni ta'minlash uchun siyosiy irodani safarbar etish kambag'allikka barham berish, tengsizlikni kamaytirish va hech kimni e'tibordan chetda qoldirmaslikning kalitidir.

Nuqtayi nazar



Hozir har bir davlat iqtisodiy, investitsiyaviy hamda strategik qarorlar orqali dunyodagi mavqeini belgilashga intilyapti. Global raqobat va logistika tizimidagi uzilishlar har bir mamlakat uchun nafaqat ichki siyosat, balki mintaqaviy hamkorlik va xalqaro investitsiya muhitidagi faol ishtirokning ahamiyatini kuchaytirmoqda. Shuningdek, iqtisodiy farovonlik va ustuvorlik endi resurslar va salohiyat bilan birga amaliy hamkorlik va strategik integratsiyaga ham bog'liq.

Barqaror rivojlanish va yangi imkoniyatlar yaratish faqat moliyaviy natijalar bilan cheklanmaydi. Bu jarayonda ishonchga asoslangan sheriklik, innovatsiyalar va global tajribalarni o'zaro uyg'unlashtirish muhim ahamiyatga ega. Har bir loyiha, investitsiya va hamkorlik nafaqat iqtisodiy dividendlar, balki inson salohiyatini oshirish, yangi ish o'rinlari ochish va zamonaviy turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbarining shu yil 4-6-noyabr kunlari AQSHga amaliy tashrif orqali o'zaro ishonch mustahkamlanib, uzoq muddatli strategik kelishuvlar belgilandi va ikki mamlakat iqtisodiy hamkorligini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochilmoqda.

Jahon bilan bo'yashayotgan O'zbekistonning o'sish modeli endi ichki salohiyat bilan birga xalqaro hamkorlik va global investitsiya muhitida ham tubdan shakllanyapti. AQSHlik investorlar bilan hamkorlikdagi loyihalar zamon talablariga mos va kelajak uchun muhim qadamlar bo'lib, ikki davlat munosabatlarida yangi sahifa ochmoqda.

Iqtisodiyotda yangi markazlar paydo bo'lib, transport va logistika yo'nalishlari qayta shakllanmoqda. Diplomatik maydonda esa yangi tenglik va sheriklik mexanizmlari qo'llanayotgan jarayonda Markaziy Osiyo-



O'ZBEKISTON – AQSH:

O'ZARO ISHONCH VA AMALIY NATIJAGA TAYANGAN IQTISODIY HAMKORLIK MODELI

ga dunyo e'tibori yanada ko'p qaratilmoqda. Tarixan Sharq va G'arbi bog'lab turgan, sivilizatsiyalar muloqotining muhim nuqtasi sifatida mashhur bo'lgan bu zamin global yangilanish jarayonida o'zini faol ishtirokchi sifatida namoyon qilmoqda.

"C5+1" formatiga aynan shu jarayonning amaliy ifodasi sifatida qaraladi. Bu mexanizm nafaqat siyosiy muloqot uchun maydon, balki iqtisodiy integratsiya va barqaror rivojlanishni ta'minlaydigan institutsional platformaga aylanmoqda. Format doirasida AQSH yetakchiligidagi Markaziy Osiyo davlatlari teng huquqli va barqaror sheriklikni amalga oshirmoqda. Bu jarayonda eng muhim jihat har bir davlat o'z mustaqil siyosiy va iqtisodiy pozitsiyasini saqlab qolishi barobarida umumiy maqsad — mintaqaviy barqarorlik va global raqobatga tayyorlikka erishishga qaratilgan.

Sammit doirasida Prezidentimiz bu formatni chuqurlashtirish va samaradorligini oshirish bo'yicha qator tashabbuslarni ilgari surdi. Masalan, doimiy faoliyat yuritadigan Kotibiyat hamda vazirlar darajasidagi Investitsiyalar va savdo bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengashning tashkil etilishi sammitlarni rasmiy uchrashuvdan amaliy natija beruvchi tizimga aylantirishda muhim qadam sifatida baholalanmoqda.

Shuningdek, "Markaziy Osiyo investitsiyaviy sherikligi" jamg'armasini tuzish taklifi mintaqani yagona iqtisodiy hudud sifatida ko'rish g'oyasini o'zida aks ettirmoqda. Bir davlatning taraqqiyoti boshqa mamlakatlarning imkoniyatlari bilan uyg'un bo'lmagan holda barqaror ildamlashi qiyin. Shu ma'noda, hamjihatlik nafaqat iqtisodiy o'sish, balki mintaqaviy barqarorlikning ham kafolatidir.



O'zbekistonning ochiq va pragmatik tashqi siyosati mintaqaviy birdamlikni ta'minlovchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Samarqanda navbatdagi "C5+1" yig'ilishini o'tkazish taklifi ham bu fikrni tasdiqlaydi. Zotan bu tarixiy shahar sivilizatsiyalar muloqoti, savdo va ilm yo'llari kesishgan nuqtasidir. Yangi sammit esa shu ruhda hamkorlik, muloqot va taraqqiyot ramzi sifatida qadimiy kentda o'tkazilsa, ajabmas.

Umuman olganda, "C5+1" formati butun mintaqaning hamjihatligidan kelib chiqadigan kuch g'oyasini targ'ib qiladi. Markaziy Osiyo davlatlari ushbu jarayonda nafaqat dunyo bilan, balki o'z tarixi va madaniy merosi bilan ham qayta yuzlashmoqda. Bir vaqlar Buyuk ipak yo'li orqali sivilizatsiyalarni bog'lab turgan mintaqada endi yangi global muloqot markazi sifatida o'zini namoyon qilmoqda.

O'zbekistonning AQSH kompaniyalari bilan hamkorligi nafaqat iqtisodiy dividend, balki yangi boshqaruv madaniyati, innovatsion fikrlash va korporativ mas'uliyatni ham olib kirmoqda. Bu — yangi avlod rahbarlari va tadbirkorlari uchun tajriba maktabi. Chunki har bir qo'shma loyiha nafaqat iqtisodiyotni, balki insonning o'zgarishga intilishini ham kuchaytiradi.

shartnoma emas, balki hamkorlikning yangi ko'rinishi — "harakatlardan amaliy natija sari" tamoyili yotadi.

AQSH Eksport-import banki bilan energetika, transport, muhim mineral va agrotehnologiyalar sohaslarida loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha kelishuvlar mamlakatimizga ishonch ifodasidir. Chunki mazkur hamkorlik orqali O'zbekiston nafaqat moliyaviy resurs, balki texnologiya, tajriba va standartlar transferini ham amalga oshirdi.

Davlatimiz aviatsiya sohasida "Boeing" bilan hamkorlikni kengaytirmoqda. Bu aviatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish bilan birga logistika va turizm salohiyatini oshirish, yangi ish o'rinlari ochishga ham xizmat qiladi. Shuningdek, AQSH Xalqaro moliyaviy taraqqiyot korporatsiyasi muloqotlar xususiy sektorni rivojlantirishda yangi bosqichni boshlab berdi. Tashkilotning Toshkentda mintaqaviy ofis ochishi haqidagi kelishuv mamlakatimizga investitsiyalarning doimiy oqimini ta'minlaydi.

Prezidentimizning tashrif chog'ida erishilgan eng muhim natijalardan biri raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar sohasidagi hamkorlikdir. "Google", "Meta", "NVIDIA", "Palo Alto Networks" kabi texnologik gigantlar bilan sheriklik O'zbekistonning raqamli suvereniteti va texnologik mustaqilligini ta'minlash sari tashlangan dadil qadam bo'ldi. Mazkur loyihalar raqamli xizmatlarni joriy etish, inson kapitalini boyitish, ta'lim va yangi avlod mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan "General Motors", "Valmont Industries", "Flowerserve Corporation", "Cargill" va boshqa yirik korporatsiyalar bilan kelishuvlar sanoat

va qishloq xo'jaligida mahalliy lashtirish hamda innovatsiyani chuqurlashtirishga qaratilgan.

So'nggi yillarda O'zbekiston va AQSH o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 4 barobar oshdi. Mamlakatimizda mazkur davlatning 300 dan ziyod kompaniyasi faoliyat yuritmoqda. Bu raqam amaliy harakat natijasidir. Har bir yangi zavod, har bir startap, har bir qo'shma korxona — yangi ish o'rnini, yangicha hayot sifati, yangi imkoniyatlar degani.

O'zbekistonning AQSH kompaniyalari bilan hamkorligi nafaqat iqtisodiy dividend, balki yangi boshqaruv madaniyati, innovatsion fikrlash va korporativ mas'uliyatni ham olib kirmoqda. Bu — yangi avlod rahbarlari va tadbirkorlari uchun tajriba maktabi. Chunki har bir qo'shma loyiha nafaqat iqtisodiyotni, balki insonning o'zgarishga intilishini ham kuchaytiradi.

Iqtisodiyot faqat moliyaviy tizim emas, u jamiyatning ruhiy chehrasi, tafakkur madaniyatini ham aks ettiradi. Shu bois, O'zbekiston va AQSH o'rtasidagi hamkorlikning yangi bosqichi faqat iqtisodiy voqeelardan iborat emas, aksincha ko'lami va mohiyati nihoyatda keng.

Avvalo, har bir loyiha, har bir investitsiya, har bir sheriklik fikrining amaliy shakliga ko'chishi, ozuning iqtisodiy ifodasi, mehnatning qadriini oshirishga qaratilgan harakatlardir. Har bir hamkorlik zamiridagi eng oliy g'oya — taraqqiyot markaziga insonni qo'yish, uning ijodkorligi, mehnati va sha'nini yuksaltirish.

O'zbekiston — AQSH munosabatlarining yangi bosqichi shunday tamoyilga suyanadi. Bu "Kim ko'proq manfaat ko'radi?" degan emas, balki "Kim ko'proq hissa qo'shadi?" degan savolga javob topishga undaydigan hamkorlikdir. Shu ma'noda, har bir qo'shma loyiha faqat iqtisodiy bitim emas, balki o'zaro ishonchning yangi bosqichidir. Unda mehnatga hurmat, bilimga ehtiyoj va insoniy qadrga e'tibor mujassam.

Mazkur omillar tufayli ham davlatimiz rahbarining AQSHga tashrifi faqat rasmiy safar emas, balki dunyo bilan teng muloqotda bo'lish, yangicha tafakkur va munosabat madaniyatini amalda namoyon qilishning yuksak namunasi bo'ldi.

O'zbekiston va AQSH munosabatlaridagi yaqinlashuv rasmiy muloqotlar, iqtisodiy, texnologiy va ijtimoiy hamkorlikda yangi bosqich ochildi. Prezidentimizning tashrifi natijasida imzolangan bitimlar va loyihalar nafaqat moliyaviy dividendlar, balki mahalliy kadrlar salohiyatini oshirish, innovatsion fikr va zamonaviy boshqaruv madaniyatini kengaytirishga xizmat qiladi. "C5+1" formati orqali Markaziy Osiyo mintaqaviy hamjihatlik va global raqobatga tayyorlik modelini yaratayotgani, har bir investitsiya va loyiha ortida inson va uning salohiyati turishi ushbu hamkorlikning asosiy qadriyatlarini ko'rsatadi. Shu ma'noda, O'zbekistonning tashqi siyosat strategiyasi real amaliy qadamlar va milliy manfaatlar uyg'unligi orqali barqaror taraqqiyotga erishishdir.

Sardor TOLLIBOYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Poytaxtimizdagi oziq-ovqat bozorlaridan birida "Mahsulot qimmat bo'lsa sotuvchidan, arzon bo'lsa xaridordan insof ketadi" degan yozuv ilib qo'yilgan. Bu bozor qonuniyatlarini ifoda etadigan ayni haq gap. Zotan, talab va taklif uyg'unligi ko'p jihatdan iqtisodiy farovonlikni ta'minlaydigan, uning barqaror o'sishiga xizmat qiladigan asosiy barometrdir. Deylik, bir mahsulot taqchilligi sabab bozorda unga talab oshib ketishi o'z-o'zidan narxlarining ham ko'tarilishiga, aksincha bo'lsa, bahosi tushib ketishiga olib keladi.



Tahlil



Oziq-ovqat xavfsizligida "OQILONA ISTE'MOL" DASTURI ISHGA TUSHIRILDI

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan bugungi dunyoda narx aynan xaridor va sotuvchi uchrashadigan joy — bozorda, raqamli savdo platformalarida, birjalarda shakllanadi. Zamonaviy iqtisodiyot modeli nazariy jihatdan ham, amaliyotda ham jonli mexanizmga asoslangan. Biroq bugun tabiiy resurslarning muttasil kamayib, aholi sonining ko'payib borishi eng rivojlangan davlatlarni ham o'z ichki iste'mol bozorini tashqi taqchilliklardan himoya qilishga majbur etayotir. Davlatning asosiy vazifasi va maqsadlaridan biri o'z xalqining

turmush tarzini yaxshilash, ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun yetarlicha sharoit yaratishdir. Ayniqsa, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash eng ustuvor va muhim yo'nalish sanaladi.

Shu bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligi masalasi bugun har bir mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida asosiy o'rinlardan biriga ko'parildi. Chunki xalqning farovon yashashi ko'p jihatdan bozorlari to'kinligiga bog'liq.

O'zbekistonda ham oziq-ovqat xavfsizligiga alohida e'tibor berilmoqda. Shu yil 3-fevralda davlatimiz rahbari bu

boradagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga soluvchi "Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida"gi qonunni imzoladi. Ushbu hujjat orqali bozorni tartibga soluvchi vakolatli organ va uning vazifalari, ta'minot zanjiri, iste'molchi va ishlab chiqaruvchi o'rtasidagi munosabatlar tartibga solindi.

So'nggi yillarda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida kompleks chora-tadbirlar ko'rilaypti. Xususan, aholining kundalik ehtiyoji uchun zarur mahsulotlarni yetishtiruvchi tadbirkorlik subyektlari faoliyati qo'llab-quvvatlanmoqda. Ularga davlat tomonidan imtiyozlar berilmoqda hamda eksport va import uchun qulay sharoit yaratilmoqda.

O'zbekiston o'zining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash barobarida mevasabzavot va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini faol eksport qilishi tufayli tashqi bozorlarda ham o'z o'rimga ega.

Shu o'rinda dunyodagi oziq-ovqat xavfsizligi borasidagi umumiy manzarani tasavvur qilish uchun BMT e'lon qilgan ochiq statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratsak. Mazkur nufuzli xalqaro tashkilotga ko'ra, hozir dunyo aholisining 815 millioni och qolayotgan bo'lsa, 2050-yilga borib, bu ko'rsatkich 2 milliard kishiga yetadi.

Ularining 12,9 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarda yashaydi. Besh yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasidagi o'limning 45 foizi aynan to'yib ovqat yemalik natijasida kelib

chiqayotir. Hozir har yili 3,1 bola aynan shu sabab hayotdan ko'z yummoqda.

Qishloq xo'jaligi dunyodagi eng katta ish beruvchi sohadir. Bugun Yer yuzi aholisining 40 foizi aynan shu tarmoqda mehnat qiladi. Bu qashshoq hududlardagi oilalar uchun daromad keltiruvchi va bandlikni ta'minlovchi asosiy manba. Shunday ekan, mazkur jabhaga investitsiya kiritish orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash qatorida mahalliy va tashqi bozorlarga mahsulot yetkazib berish bo'yicha mamlakat imkoniyatlarini oshirish mumkin.

Yaqinda BMT tomonidan oziq-ovqat mahsulotlari isrofgarchiligiga qarshi kurashish bo'yicha global kampaniya e'lon qilindi. Bu ham aynan oziq-ovqat xavfsizligiga xizmat qiladi. Mazkur tuzilmaning Atrof-muhit bo'yicha tashkiloti (UNEP) ma'lumotiga ko'ra, har yili dunyo bo'yicha 1,3 milliard tonna oziq-ovqat mahsuloti chiqindiga tashlab yuboriladi. Ne'matlarning bunday isrof qilinishidek mantiqsiz holatga barham berish uchun, birinchi navbatda, ularni saqlash sharoitini o'zgartirish taklif etilyapti.

Dunyodagi oziq-ovqat mahsulotlarining uchdan bir qismi chiqindi idishlarida yotadi. Jahon iqtisodiyoti bundan har yili qariyb trillion dollar zarar ko'ryapti. Bu gaplar BMT hisobotida keltirilgan aniq raqamlar.

O'zbekistonda ham BMTning yuqoridagi tashabbusiga uyg'un holda "Oqilona iste'mol" (Save food) dasturi ishga tushirildi. Ushbu keng ko'lamli aksiyaga Vazirlar

Mahkamasining 16-sentyabrda tegishli qarori asosida start berildi. Endi mazkur dastur doirasida to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar belgilangan tartibda o'tkazilishi qat'iy nazoratga olinadi.

Hujjatga ko'ra, 2026-2030-yillar "Dolzarg oziq-ovqat xavfsizligi davri" deb e'lon qilinadi. Bunda aholi ehtiyojiga yetarli darajada va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berish hamda ortiqcha isrofgarchiliklarning oldini olish choralari ko'riladi.

Qaror bilan "Oqilona iste'mol" dasturini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini tasdiqlandi. Unda, jumladan, to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senat kengashlarining 2019-yil 14-sentabrda qo'shma qarori bilan tasdiqlangan "To'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni o'tkazishni tartibga solish to'g'risida"gi nizom talablari asosida o'tkazilishi ta'minlanadi.

Nizomda oilaviy tadbirlarda 200 nafargacha, mazkur tadbirlar munosabati bilan osh berish marosimida 250 nafargacha kishi qatnashishi mumkinligi belgilangan. Qo'shaloq to'y-hashamlarda ham 250 nafargacha, u bilan bog'liq osh berish marosimida esa 300 nafargacha kishi qatnashishi mumkin.

Milliy an'analarga yot, odob-axloq qoidalariga zid bo'lgan turli shoular, ortiqcha vaqt va xarajat talab qiladigan oilaviy marosimlardan oldingi, tadbir davomidagi va

undan keyingi qo'shimcha rasm-rusumlarni o'tkazish man etilgan.

So'nggi uch yillik tahlilga ko'ra, mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifati va eksport salohiyatini oshirishga yondashuv mutlaqo o'zgargan. Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirilgan.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i sanaladi. Unda mehnatga layoqatli aholining katta qismi ishlaydi. YIMda tarmoq ulushi 32 foizga teng bo'lsa, sohada foydalaniladigan yer maydonlari respublika hududining 45 foizini egallaydi. Hozir 180 dan ortiq turdagi qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari 100 ga yaqin mamlakatga eksport qilinmoqda.

Shunga qaramay, yurtimiz aholisi yiliga qariyb 1 millionga o'sib boryapti. Yer va suv manbalari esa cheklangan. Shu bois, ichki bozor barqarorligini omilkorlik va hosildorlik orqali ta'minlash bugunning asosiy talabiga aylanmoqda.

Endi aholiga zarur bo'lgan birlamchi 10 turdagi asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining tizimli hisob-kitobi yuritilmoqda. Bunda har bir tuman bo'yicha qanday mahsulot yetishtirilishi va ichki bozor uchun qancha xazira qilinishi aniq tahlillar asosida belgilanadi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan 260 ming gektar yer dehqonchilik qilish uchun 800 ming kishiga bo'lib berilgan edi. Shuningdek, Sayxunobod tajribasi asosida tomo'raqlarda mahsulot yetishtirish qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu odamlarni, ayniqsa, yoshlarni ish o'rni va daromad bilan ta'minlashda to'g'ri yo'l bo'lganini bugun hayotning o'zi ko'rsatmoqda. Qolaversa, bu qishloq xo'jaligi mahsulotlari ko'p yetishtirilib, narxi keskin oshib ketmasligida muhim omil bo'ldi.

Yurtimizda iste'mol madaniyatini yuksaltirish, isrofgarchiliklarning oldini olish maqsadida "Oqilona iste'mol" dasturining ishga tushirilgani o'z vaqtida qabul qilingan muhim qaror bo'ldi. Zero, xalqimizning farovon va sog'lom turmush tarzini qaror toptirishda bu o'ta muhim hayotiy masaladir. Aslida, qishloq xo'jaligidagi islohotlardan pirovard maqsad iqtisodiy foyda ko'rish bilan birga oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, xalq farovonligini oshirishdan iborat.

Yunus BO'RONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Yangi O‘zbekistondagi islohotlar yanada keng quloach yozishida ikkita muhim jihat bor, nazarimda. Bular do‘stlik va bag‘rikenglikdir. Axir har bir jamiyat rivojida hamjihatlik ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu ma’noda, yurtimizda millatlararo do‘stlik va hamjihatlikni mustahkamlash borasidagi ishlar barchamizni quvontiradi.

TOTUVLIK, DO‘STLIK VA YORUG‘ KELAJAK KAFOLATI

Gulandom SUBHONOVA,
Respublika tojik milliy madaniy
markazi raisi,
falsafa fanlari nomzodi



bag‘rikenglik tamoyili ustuvorligini yaqqol isbotlaydi.

Yurtimizdagi turli millat vakillarining bir-biriga mehr-oqibati va totuvligini yanada yuksaltirish maqsadida 2021-yili O‘zbekiston Respublikasining “Xalqlar do‘stligi kunini belgilash to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Endi har yili 30-iyul mamlakatimizda “Xalqlar do‘stligi kuni” sifatida keng nishonlanmoqda.

Joriy yil ushbu bayram arafasida davlatimiz rahbari tashabbusi bilan poytaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi “Do‘stlik” bog‘ida 22 milliy madaniyat markazining pavilyonlari ochildi. Bugun ushbu maskan chin ma’noda mamlakatimizdagi ko‘pmillatli jamiyatning haqiqiy timsoliga aylandi. Mazkur majmuada turli millat va elatlarning madaniyati, tarixiy qadriyatlari hamda urf-odatlarini ifodalovchi ikki qavatli inshootlar barpo etilgan. Har bir pavilyon muayyan millatning milliy an‘analarini namoyon etadi. Bu binolar me’moriy jihatdan nafaqat chiroyli, balki har bir xalqning ma’naviy olami, madaniy rang-rangligini ham qamrab olgan holda yaratilgan.

Faoliyati yo‘lga qo‘yilgan qisqa vaqtda yoq pavilyon millatlararo totuvlik va do‘stlik g‘oyalari targ‘ib etuvchi muhim madaniy-ma’rifiy tadbirlarga mezbonlik qildi. Bu yerda turli xalqlarning bayramlari, milliy taomlar festivallari, xalq amaliy san’ati ko‘rgazmalari, konsert dasturlari va ijodiy uchrashuvlar muntazam tashkil etilmoqda. Ana shu tadbirlar orqali mamlakatimizda yashayotgan millatlar o‘rtasida o‘zaro hurmat, birdamlik,

hamjihatlik va do‘stlik tuyg‘ulari yanada mustahkamlanmoqda.

Shu bilan birga, milliy madaniy markazlar pavilyoni nafaqat ichki hamjihatlik, balki xalqlar do‘stlik aloqalarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu yerda xorijiy mamlakatlar bilan madaniy hamkorlik doirasida qator qo‘shma loyihalar amalga oshirilmoqda, chet el elchixonalari va madaniyat muassasalari bilan hamkorlikda tadbirlar o‘tkazilmoqda.

Jahonda o‘xshashi yo‘q mazkur pavilyonlar mamlakatimizda yashayotgan barcha millat va elatlar o‘rtasidagi do‘stlik, hamjihatlik va o‘zaro ishonch ramzidir. U xalqlar o‘rtasidagi birodarlik rishtalarini yanada mustahkamlash, tinchlik va barqarorlikni asrab-avaylash, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan jamiyat barpo etishdagi muhim qadam.

2021-yilda Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan “Xalqlar do‘stligi” ko‘krak nishoni ta’ sis etildi. Har yili yurtimizda yashayotgan barcha millat va elatlarning vakillari o‘rtasida millatlararo do‘stlik va totuvlik muhitining mustahkamlanishiga munosib hissa qo‘shgan mahalliy va xorijiy davlat organlari xodimlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, tadbirkorlik subyektlari, ijtimoiy soha va ommaviy axborot vositalari vakillari hamda chet eldagi vatandoshlarimiz ushbu ko‘krak nishoni bilan taqdirlanmoqda. Bular jamiyatimizdagi hamjihatlik, do‘stlik, birodarligimiz yanada mustahkam bo‘lishiga xizmat qilmoqda.

Respublika tojik milliy madaniy markazi raisi sifatida mamlakatimizda boshqa

millat va elatlar qatori tojik xalqining tili, adabiyoti, madaniyati, urf-odatlarini saqlash va rivojlantirish borasidagi ishlar, ayniqsa, o‘zbeklar va tojiklar o‘rtasidagi do‘stlik haqida ham alohida to‘xtalmoqchiman.

Yurtimizdagi millatlararo va dinlararo bag‘rikenglik siyosatidan biz — tojik xalqi vakillari ham bahramand bo‘laymiz. Farzandlarimiz umumiy o‘rta hamda oliy ta’lim muassasalarida ona tilimizda o‘qiyapti. Tojik tilida “O‘vozi tojik” gazetasi haftada ikki marta chop etiladi. Bundan tashqari, Samarqandda “O‘vozi Samarqand” gazetasi, “Durdonai Sharq” jurnali, Surxondaryoda “Boxtar” gazetasi nashr qilinmoqda. Har yili ona tilimizda o‘nlab kitoblarni bosmadan chiqadi. “O‘zbekiston” televideniyesida “Ranginkamon” nomli ko‘rsatuvimiz bor. Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Farg‘ona, Sirdaryo, Toshkent viloyatlarida Respublika tojik milliy madaniy markazining bo‘limlari faoliyat yuritmoqda.

O‘zbek va tojik xalqlari asrlar davomida bir zaminda, yagona madaniy muhitda yashab kelmoqda. Ular o‘rtasidagi adabiy va ma’naviy aloqalar Markaziy Osiyo taraqqiyotining muhim qismi bo‘lib kelgan. Xususan, Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiyning do‘stligi nafaqat ikki buyuk shoirning ruhiy hamjihatligini, balki ikki xalq o‘rtasidagi ma’naviy yaqinlikni ham ifodalaydi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston hamda Tojikiston o‘rtasidagi do‘stlik va hamkorlik munosabatlari yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu hamkorlik nafaqat siyosiy yoki iqtisodiy sohada bo‘y ko‘rsatmoqda, balki xalqlar qalbidagi mehri va ishonch tuyg‘ularini yanada mustahkamlamoqda.

Bag‘rikenglik, millatlar va elatlar o‘rtasidagi do‘stlik, o‘zaro hurmat va hamjihatlik muhiti yaqin atrofdagi barcha mamlakatlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi natijasida Markaziy Osiyoda do‘stlik va hamjihatlik yangi bosqichga chiqdi. Mintaqadagi davlatlar o‘rtasidagi munosabat o‘zaro ishonch va manfaatli hamkorlik asosida mustahkamlandi. Buni butun dunyo tan olgani ham ayni haqiqat. Ha, ayni paytda Markaziy Osiyo nafaqat geografik jihatdan, balki umumiy tarix, qadriyat va kelgusi maqsadlar bilan ham bog‘langan yagona ma’naviy makon sifatida namoyon bo‘lmoqda. Davlatimiz rahbarining ochiq va pragmatik



tashqi siyosati tufayli mintaqada “Markaziy Osiyo ruhi” degan yangicha hamjihatlik muhiti shakllandi.

Mazkur ibora bugun mintaqada davlatlarining o‘zaro ishonch, yaqin qo‘shnichilik va do‘stlik asosidagi munosabatlari ifoda etadigan yangi siyosiy va ma’naviy tamoyilga aylandi. Bu ruh tinchlik, totuvlik, o‘zaro manfaatli hamkorlik va birodarlik asosida qurilgan munosabatlar poydevoridir.

Joriy yilda Xo‘jand shahrida O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘iziston Prezidentlarining tarixiy uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Bu uchrashuv ham “Markaziy Osiyo ruhi”ning amaliy ifodasi bo‘ldi. Uch davlat rahbarlarining samimiy muhitda o‘tgan muzokaralari nafaqat siyosiy, balki ma’naviy va do‘stlik jihatidan ham katta ramziy ahamiyatga ega. Ushbu muloqotda o‘zaro hamkorlikni kengaytirish, savdo, transport va energetika sohalarida birgalikda loyihalarni amalga oshirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Muhim voqealardan biri uch davlat chegarasida “Do‘stlik stelasi” o‘rnatilgani mintaqadagi hamjihatlik va bag‘rikenglik ramzi sifatida tarixga kirdi. Bu stela nafaqat geografik nuqta, balki xalqlar qalbini birlashtiruvchi ma’naviy timsolga aylandi. U qo‘shni xalqlarning qadimiy do‘stligi, umumiy

tarix va kelajakka mushtarak intilishlarini yorqin ifoda etadi. Ushbu uchrashuv doirasida tashkil etilgan xalqlaro forum qatnashchisi sifatida taassurotlarim haqida aytсам. Avvalo, qo‘shnilarimizning davlatimiz rahbariga hurmat-ehtiromi yuksak darajada ekanidan faxrlandim. Do‘st Qirg‘iziston va Tojikistonning turli viloyatlaridan kelgan ishtirokchilar yakdillik bilan bugungi quvonchli voqealar, do‘stlik rishtalarining yanada mustahkamlanishi Prezident Shavkat Mirziyoyevning oqilona siyosati natijasi ekanini ta’kidladim.

Bugun O‘zbekiston nafaqat iqtisodiy yoki siyosiy, balki ma’naviy jihatdan ham mintaqaning bag‘rikenglik markaziga aylanmoqda. Har bir fuqaro, qaysi millat va qaysi e’tiqodga mansubligidan qat’i nazar, yurtimizda o‘zini erkin va qadrlil his qiladi. Buni xorijliklar ham e’tirof etmoqda. Joriy yil Xo‘jandda o‘tkazilgan O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘iziston Prezidentlarining tarixiy sammitidan keyin ota-onam yurti Forish tumanining Uxum qishlog‘iga bordim. Ushbu qishloq yurtimizning eng qadimiy hududlaridan. Bu yerga har yili ko‘plab chet ellik sayohatlar keladi. Qishloqda bir guruh sayohat oldimizdan chiqdi. Ular bilan suhbatlashdik. Tojik milliy madaniy markazi raisi ekanimni bilgach, suhbatimiz ham do‘stlik, bag‘rikenglik haqida bo‘ldi.

— O‘tam qozog‘istonlik, onam qirg‘izistonlik nemislardan, — deydi germaniyalik sayyoh

Miklas Beler. — Ular 1990-yilda Germaniyaga ko‘chib ketgan. Men o‘sha yerda tug‘ilganman. Bir hafta bo‘ldi, turmush o‘rtog‘im bilan avval Qirg‘iziston va Qozog‘istonda bo‘ldik. Mana, ikki kundan beri O‘zbekistondamiz. Toshkentdan to‘g‘ri Forishga keldik. Kecha tog‘lardagi xushmanzara joylarni, alqorlarni, necha ming yillik tarixga ega sarv daraxtlari tomosha qildik. To‘g‘risi, bu yerdagi odamlarning samimiyliyi, mehmondorligi bizga yoqdi. Kecha shu qishloqda Tojikistonda uch davlat Prezidenti uchrashuvi munosabati bilan o‘tkazilgan ajoyib tadbirning guvohi bo‘ldik. Turli tillarda yangragan diltortar qo‘shiqdarga biz ham raqs tushdik. Bizga milliy do‘ppi sovg‘a qilindi. Kayfiyatimiz juda ham a’lo bo‘ldi. Bunday tadbirlar xalqlarni yanada jipslashtiradi. Mamlakatingizdagi bag‘rikenglik, millatlararo do‘stlik, totuvlik borasidagi mana shunday ishlarni boshqa davlatlarga namuna qilsa arziydi.

Bu e’tirofdan juda xursand bo‘ldim. Rostdan ham mamlakatimiz bugun dunyo ahlini ezigulikka chorlab, bag‘rikenglik va do‘stlik namunasi o‘laroq namoyon bo‘lmoqda. Demak, yangi O‘zbekiston o‘z oldiga qo‘ygan ulkan marralarni tez zabt etadi. Zero, bag‘rikenglik bor joyda tinchlik, do‘stlik va albatta, yorug‘ kelajak bo‘ladi.

ILM-MA’RIFATNING SO‘N MAS MAYOG‘I

Naqshband ilmiy-tadqiqot markazlari salohiyatidan birgalikda foydalanishga chaqirdi.

“Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining asosiy vazifalaridan biri ham aynan moturidiylik ta’limotini chuqur tadqiq etish orqali yosh avlodni millatlararo va dinlararo bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat, birdamlik kabi islom dinining asl qadriyatlarini ruhiyda tarbiyalashdan iborat.

Bu yo‘lda markaz ilmiy xodimlari islom dinining tinchlik, bag‘rikenglik, bunyodkorlikka chaqiruvchi g‘oyalari, aholi, ayniqsa, yoshlarga xalqchil tarzda



yetkazish, shuningdek, mutaassiblik, radikalizmga qarshi kurashishning ilmiy-ma’rifiy asoslarini ishlab chiqishga

qaratilgan qator tadqiqotlarni amalga oshirmoqda.

Joriy yil 29-30-aprel kunlari Samarqand

shahrida o‘tkazilgan xalqlar anjuman ham aynan “Moturidiylik — bag‘rikenglik, mo‘tadillik va ma’rifat ta’limoti” mavzusiga bag‘ishlandi. Konferensiyada ishtirok etgan mashhur ulamolar, islomshunos olimlar, tanliq ekspertlar moturidiylik ta’limotining bugungi ahamiyati, O‘zbekiston butun dunyoga bag‘rikeng diyor sifatida namoyon bo‘layotganini e’tirof etdi.

So‘nggi yillarda yangi O‘zbekistonda millatlararo totuvlik, diniy konfessiyalar o‘rtasida bag‘rikenglik muhitini yanada mustahkamlash borasida ulkan natijalarga erishilmoqda. Jumladan, 16-noyabr — Xalqaro bag‘rikenglik kunu munosabati bilan mamlakatimizda har yili noyabr oyida bag‘rikenglik haftaligini o‘tkazish an’anaga aylangan.

Bu orqali O‘zbekistonning diniy bag‘rikenglik borasidagi ulkan tarixiy tajribasini xalqlar jamoatchilikka yetkazish bilan birga mamlakatimizda bugun ushbu yo‘nalishda qo‘lga kiritilayotgan muhim yutuq va natijalarni keng targ‘ib qilish, turli konfessiya vakillari o‘rtasidagi tinch-totuv hayotga asoslangan konstruktiv munosabatlarni yanada rivojlantirish ko‘zda tutilgan.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

MOUSSIS:
**O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-1146.

34685 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Jonibek Alijonov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘za yakuni — 00:45